

ABDUVAHOB IBODIY'S VIEWS ON THE FIELD OF EDUCATION IN THE LITERARY ENVIRONMENT OF KOKAND IN THE EARLY 20TH CENTURY

Shakhnoza Abidovna Mirzamidinova

Angren University Teacher of the Department of "Humanities and Social Sciences," Independent Researcher of the State Museum of Memory of Victims of Repression under the Cabinet of Ministers

Abstract:

Events such as the termination of the Kokand Khanate by the Tsarist Empire much earlier than other khanates and emirates, i.e. in 1876, as well as the extreme strengthening of national oppression against the local population in the country, the assimilation of the nation's genetics, forced the country's intelligentsia to think deeply about the future, to be able to foresee and analyze what was being done by the colonial government.

Keywords: Czar empire, modern schools, innovative schools, nogay schools, material and technical base, "School of Life", "Miftoh ul-alifbo", "Tahsil-ul alifbo", textbooks and manuals, "Irfon" (Science) school.

Introduction

XX ASRNING BOSHLARIDAGI QO‘QON ADABIY MUHITIDA ABDUVAHOB IBODIYNING MAORIF SOHASIDAGI QARASHLARI

Shaxnoza Abidovna Mirzamidinova

Angren universiteti "Gumanitar va ijtimoiy fanlar" kafedrası o‘qituvchisi,
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya:

Chor imperiyasi tomonidan Qo‘qon xonligining boshqa xonlik va amirliklarga nisbatan ancha erta ya‘ni 1876-yildayoq tugatilishi hamda o‘lkada mahalliy xalqqa nisbatan milliy zulmning hadsiz darajada kuchaytirilishi, millat genetikasining assimliyatsiya qilinishi kabi yovuzliklar o‘lka ziyolilarini kelajak

to'g'risida chuqur o'ylashga, mustamlakachi hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan hamda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ishlarni murakkab bo'lishiga qaramay oldindan ko'ra bilish, shuningdek tahlil qilishga undadi.

Kalit so'zlar: Chor imperiyasi, jadid maktablari, yangi-usul maktablari, no'g'ay maktablari, moddiy-texnik baza, "Hayot maktabi", "Miftoh ul-alifbo", "Tahsil-ul alifbo", darslik va qo'llanmalar, "Irfon" (Ilm) maktabi.

Qo'qonlik jadidlar xalqni mustamlakachilik zulmidan qutqaradigan kuchni eng avvalo ilm-ma'rifatda ko'rdilar, shu boisdan ham ular bor kuchlarini eng avvalo ilg'or usuldagi jadid maktablarini ochishga hamda mahalliy millat bolalarini ushbu maktablarga keng miqyosda qamrab olishga harakat qildilar. Ushbu maqsad yo'lida Qo'qon shahrida Ahmadjon Qori tomonidan 1892-yilda ilk jadid maktabini ham ochdilar¹. Biroq, maktablarning yetishmovchiligi, qolaversa unda o'qitilayotgan darslarning hali uncha takomilga yetmaganligi, qolaversa Qo'qonda o'quvchilar, hamda mahalliy millat vakillari foydalanishi uchun zamonga xos bo'lgan kutubxonlarning mavjud emasligi vaziyatni bir muncha qiyinlashtirar edi. Masalan, Orenburgda chop etiladigan "Vaqt" gazetasining 1907-yil 17-iyundagi sonida Qo'qon shahrida istiqomat qilayotgan Halilurrohman ismli muallimning bir maktubi chop etilgan. Muallim ushbu maktubida: "Shahrimiz savdo va tijoratning eng markazi bo'lgan bir yerdir. Faqat, shahrimizda qiroatxona bo'lmagani sababli yoshlar o'zlarining bo'sh vaqtlarini foydasiz ravishda talaf va mollarini isrof etmoqdalar. Agarda bir qiroatxona bo'lib Rusiyada chiqayotgan turkiycha gazetalarning jumlasini olinsa va foydali yangi ishlar ham amalga oshirilsa yoshlarimiz boshqa foydasiz ishlar bilan shug'ullanishning o'rniga munosib vazifalar bilan mashg'ul bo'lur edi"², deb yozgan holda Qo'qon shahrida maktablar uchun kutubxonalar ochish zarurligini ta'kidladi.

Biroq, Qo'qondagi jadid maktablari qanchalik o'z vaqtida shov-shuv ko'targan bo'lmasin, dastlabki vaqtlarda moddiy ham boshqa jihatlardan hali uncha taraqqiy etmagan edi. Buni o'z vaqtida Turkiston jadidlarining sardori Mahmudxo'ja Behbudiy ham yaxshi ilg'agan edi. Jumladan u, hududdagi jadid maktablari xususida to'xtalar ekan: "Ho'qandga...kirib usuli-jadid maktabi

¹ Shokir Muxtoriy. Islohnini nimadan boshlag'a // "Sadoyi Farg'ona" gazetasi. 1914-yil 3-aprel. № 1. – B. 22.

² Muhbir. Maktub // "Vaqt" gazetasi. 1907-yil 21-iyun. № 183.

joylashgan o‘rinni so‘rab topdim. Bir yaxshi kishi o‘zining uyini maktabga bergan ekan, kirib ko‘rdim. Eski hammom, eski toz – jadid maktabi deb borib ko‘rsam jadidlikdan asar yo‘q. Ilmi qiroat, tajvid, muntazim, ilmi hol, hisob, insho, jo‘g‘rofiya, qiroati-turkiy, forsiy va tarix o‘qitilishi aytilgan bo‘lsa-da, bular yo‘q edi. Maktabning muallimidan ba‘zi narsalarni so‘rab bildim ammo ming afsuskim javob eshita olmadim. Xulosa, bu maktabning nomi jadid bo‘lsa ham o‘zi jadid emasdir”³.

Alohida qayd etish lozimki, Qo‘qon yangi-usul maktablarida mahalliy millatga mansub muallimlardan tashqari dastlabki vaqtlarda no‘g‘ay muallimlar dars berishgan bo‘lib, ularning yerli xalqning ruhiyati va ming yillik qadriyatlarini atroflicha bilmaslik mahalliy millat bolalariga ta‘lim berish sifatiga tabiiyki ta‘sir ko‘rsatgan. Lekin, hatto ana shu no‘g‘ay muallimlarining Qo‘qon shahrida yangi usulda bolalarga dars berishlari ham Chor ma‘murlarini daxshatga solgan, iloji boricha bu holatga siyosiy tus berish bu orqali ularning faoliyatiga to‘sqinlik qilishga harakat qilgan. Natijada, 1910-yilning 28-dekabrida Qo‘qon shahrining 3-militsiya bo‘limi boshlig‘i no‘g‘ay muallimlarini o‘z xonasiga chaqirib xalq maktablari inspektorining rasmiy buyurug‘ini o‘qib beradi. Buyuruqqa binoan no‘g‘ay muallimlarining Qo‘qondagi maktablarda dars berishlari ta‘qiqlandi. Shu bilan birga buyuruqda mahalliy maktablarda faqatgina rus millatiga mansub muallimlarga dars berishi mumkinligi qayd etilgan edi⁴. Bu buyuruqdan yaqqol ko‘rinib turibdiki, Chor imperiyasi ma‘murlari Qo‘qonda shundoq ham og‘ir hamda unchalik ham tizimlashmagan holda faoliyat ko‘rsatayotgan maktablarni o‘z nazorati ostiga olishga, kerak bo‘lsa unda dars berayotgan muallimlarni rus millatiga mansub o‘qituvchilarga almashtirishga harakat qilgan.

No‘g‘ay maktablaridagi tizimsizlik, moddiy-texnik bazasining yetishmovchiligi kabi omillar Qo‘qon ziyolilarining vaziyatni o‘z qo‘llariga olishga undadi. Natijada, bir guruh qo‘qonlik taraqqiyparvarlar bo‘lmish Abduvahob Ibodiy (1877-1942), Muhammadjon Xoliqiy (1890-1938), Mahmudxo‘ja Domla, Zayniddin Maxsumlar o‘zlari maktabdorlik qilishga, bolalarga yangi usulda ta‘lim berish ishini boshlab yubordilar.

³ “Turkiston musulmonlari” // “Vaqt” gazetasi. 1908-yil 15-yanvar. № 268.

⁴ Бобровниковъ Н.А. Русско-туземныя училища, мектебы и медресы Средней Азии. – С.Петербург.: Сенатская типография. 1913 г. – С. 77.

Qo‘qonlik muallimlardan Abduvahob Ibodiy shahardagi jadid maktablarini mahalliy xalqning ruhiyatiga moslashtirishga, bu orqali haqiqatdan ham ilg‘or jadid maktabini bunyod etish borasida ulkan qadamlarni tashladi.

Abduvahob Ibodiy Buxoroda tahsil olib, u yerda taraqqiyparvarlik g‘oyalari bilan yaqindan tanishadi hamda 1901-yilda Qo‘qonning Qalandarxona mahallasida “Hayot maktabi” deb nomlangan jadid maktabiga asos soldi. Ibodiyning ushbu maktabi tez fursatda nom qozonib askariyat qo‘qonliklar o‘z bolalarini aynan ushbu maktabda o‘qitishni xohlar edi. 1912 yil Abduvahob Ibodiy Toshkent shahrida yangi usul maktablari uchun “Miftoh ul-alifbo” va “Tahsil-ul alifbo”, ya’ni “Alifbo o‘qishi” darsliklarini nashr etadi⁵. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatining ko‘tarilishiga hamda Ibodiy maktabining butun Turkiston bo‘ylab mashxur bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Chunki, Ibodiyning darslik va qo‘llanmalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga harf va harf birikmalari, so‘zlarni to‘g‘ri yozish, ularni talaffuz qilish qoidalaridan boshlab, raqamlar, og‘irlik o‘lchovlariga o‘tib borardi. Shuningdek, o‘quvchiga ro‘zg‘or buyumlari, daraxtlar, hayvonlar, qishloq va shaharlar, tabiat hodisalari haqida ma’lumot beradi. Ibratli hikoya va pandnomalar bilan o‘quvchining tafakkurini shakllantirib boradi. Bu darsliklar ko‘p yillar Farg‘ona jadid maktablarida asosiy qo‘llanma sifatida xizmat qildi⁶. Keyinchalik, Abduvahob Ibodiy 1914-yilda haj ziyoratidan kelganidan so‘ng Qo‘qon shahrida birinchi na’muna maktabini ochadi keyinchalik ushbu maktab Ashurali Zohiriyning tavsiyasi bilan “Irfon” (Ilm) deb qayta nomlandi.

Abduvahob Ibodiy chindanda millatparvar ziyoli o‘laroq o‘zining g‘oya va maqsadlarini matbuot orqali ham keng jamoatchilikka yetkazishga, iloji boricha o‘zining taraqqiyparvarlik maslagi atrofiga ko‘proq yoshlarni qamrab olishga harakat qildi. Masalan, u “Sadoyi Farg‘ona” gazetasining 1914-yil 20-apreldagi 6-sonida chop etilgan “Turkiston” ahli nima uchun inqirozga yuz tutadir?” nomli maqolasi ham uning maktab tizimini chuqur biluvchi nuktadon muallim, millat fojiasining tub sabablariga yetib borgan shaxsiyat ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, Abduvahob Ibodiy ushbu maqolasida Turkiston xalqining XX asr boshlariga kelib zamonaviy dunyoda yuz bergan ulkan evrilishlar asnosida ilm-ma’rifatda orqada qolib ketishiga sabab bo‘lgan omillarni 5 ta punktda mufassal bayon qilib bergan. Abduvahob Ibodiy Turkistonda yuz berayotgan ilmiy hamda texnologik inqirozning sabablarini ko‘rsatar ekan: “Albatta, bu inqiroz davrining

⁵ Irzayev B. Qo‘qon tarixidan lavhalar. – T.: “Akademnashr” nashriyoti. 2020. – B. 15.

⁶ Irzayev B. Qo‘qon tarixidan lavhalar. – T.: “Akademnashr” nashriyoti. 2020. – B. 15.

sabablari bir emas, balki benihoyatdur. Shundoq bo'lsa ham bu yerda ba'zilarini yozmoqchi bo'ldim:

- 1) Maktab va madrasalarimizning nimag'a yaratishimizni bilmasdan, usuli bilimni zamong'a muvofiq tarzda isloh etmasdan bul to'g'ridagi vazifalarni, Muallim va mudarrislarimiz ado etmaganlaridir.
- 2) Maktab va madrasalarda o'qiladurgan kitoblarni kerakliklarini saylab, nokeraklarini tashlamoq, ta'lim tariqlarini yengillatmoq onda tursun, balki hamon og'irlik yo'lini ixtiyor qilib, keyinga qarab tortmoqliklaridir.
- 3) Bul yengillatmoq to'g'risida muhokama qilib, madaniy qavm va millatlarning muallim va mudarrislaridan ibrat olib, maktab va madrasalarning tartib nomalarig'a qaqrab, alardan ma'lumot olib fikr yurg'izmoqni; "harom"dek bilib; "bizning ota-bobolarimiz shul yo'l bilan kelganlar" deb fahm etib, o'z e'tiqodlarincha islohni zo'fr gunoh sanaganlardur. Vaholanki, maktab-madrasalarni zamong'a qarab isloh qilmoq, ulug' shariatimizning arkonlaridan erdi.
- 4) Buning ustiga Muallim ruhoniylarimiz maktab va madrasa idoralarini kesib, yoki sababi maishat bo'ladirg'on ma'xuz (unumlik joy) e'tibor qilib naf'I ommani, o'z naflarig'a qurbon qilganlari va shul maishatini ta'mini uchun har xil razolat va riyokorliklikdan nafrat qilmaganlaridir.
- 5) Mutaraqqi millatlarning olimlari va faylasuflari, chet shaharlarg'a borib xusunsan, burung'i ahli islomlarning osori-atiqalaridan, ko'p tajribalar va ma'lumotlar olib kelib, o'z millatlarig'a ilm, sanoat o'rgatmoqg'a ijthod qilganlari holda butun olami islom oralarida bundog' narsalarg'a hech bir iltifot qilinmay, ota-bobolarning qoldirib ketgan narsalarini ham tanimaydurg'on bo'lganlaridan, ilm, sharaf va boyliqlari (qo'llarida bo'lg'on tijorat va kasblari) boshqalarg'a o'tib, bellari tamom bukilib, ming xo'rlik bilan umr o'tkazmoqdalar".⁷

Abduvahob Ibodiy ushbu inqirozdan chiqib ketishning yagona yo'li sifatida ta'limni ko'rsatib: "Mana! Bul ahli islom boshig'a yog'gon falokatlarini yo'qotmoq uchun ahvoli zamondan xabardor har foydalik jadidni, har islohni maqbul ko'radigan, diyonatlik, hur fikrlik muhtaram ulamo, muallim va imomlarimiz, har xil xurofotlardan saqlanib islomning sof haqiqat va mohiyatlarini xalqqa tushuntirib, xususan, avom an nos (oddiy odamlar) oralarida

⁷ Ibodiy A. Turkiston ahli nima uchun inqirozga yuz tutdilar? // "Sadoyi Farg'ona" gazetasi. 1914-yil 20-aprel. № 6.

ko'p uchraydigan bachchabozlikka o'xshash yomon fe'llarining va bid'at ishlarining yo'q bo'lishiga astoydil g'ayrat birlan kurashmoq, ta'lim-tarbiya ishlarini yo'lga qo'yimoq, muallimlar yetishtirmoq uchun Orenburg, Qozon, Ufa va boshqa yerlarga shogirdlar yubormoq, hifzi sihatga muvofiq bo'lmagan maktablarning islohini himmatlik va hamiyatlik boylarimiz xotirlariga solib tursalar tez fursatda Turkistonimiz xalqining ilm va ma'rifat topmoqligi tabiiydir"⁸ deb yozgan holda butun qo'qonlik davlatmand kishilarni ta'limga e'tibor qaratishga da'vat etdi.

Abduvahob Ibodiyning fikrlari bu o'rinda asosli hisoblanib, o'z paytida Ismoil Gaspirali ham o'zining "Turkiston ulamosi" nomli asarida: "Ulamo va hukamoyi islomiyaning tarjimai hollari tadqiq qilinadigan bo'lsa, bir cho'q ulamoning turk va turkistonlik bo'lganligini oydinlashadi. Bularning ta'lif qilgan asarlariga nazar tashlanadigan bo'lsa, ulum va fununning har turlisidan baxs qilganlari aniqlashadi. Bu kunda aholimizning "kerak emas", "lozim emas" deb zon qilayotganlari va tahsiliga himmat qilmayotgan ko'plab fanlar bobo va ajdodlarimiz zamonlarida Turkistonda va Movarounnahrda o'rganganliklarini asarlarini o'qib ko'rib turamiz. Ovro'pada ulum va funun hali taraqqiy etmagan bir zamonda, Turkiston qit'asida insonlar aqliy va naqliy ilmlar bilan shug'ullanayotgan edi"⁹ deb yozgan edi.

Abduvahob Ibodiy "Irfon" nomli maktabi o'zining salohiyatli hamda o'z davri uchun ilg'or ta'im maskani ekanligini isbotladi. Kelgusida ushbu maktabdan Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy nuqtayi nazardan fundamentini qurishga muvaffaq bo'lgan Akbar Islomov, Nazir To'raqulov, Abdullajon Karimovdek davlat va jamoat arboblari, Shokir Sulaymon, Usmon Nosir, Charxiy, Abdulla Qahhor, Sobir Abdulladek shoir va adiblar, G'ofur Qodiriy, Ibrohim Naziriy, Qurbon Nazarovdek publitsistlar, akademik Tesha Zohidov va A'zam Xo'jaev kabi ulug' shaxsiyatlar yetishib chiqdi.¹⁰

Xulosa qilib aytganda, Qo'qon taraqqiyparvarlari XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda mafkuraviy og'ir bosimlarga qaramasdan, maktablarni isloh qilish orqali ta'lim tizimini XX asr talablariga moslash, kelajakda tuzilishi rejalashtirilgan milliy davlatchilik institutlarini sifatli kadrlar bilan ta'minlash orqali Turkistonni hur va demokratik davlatga aylantirishni ko'zladilar.

⁸ Ibodiy A. Turkiston ahli nima uchun inqirozga yuz tutdilar? // "Sadoyi Farg'ona" gazetasi. 1914-yil 20-aprel. № 6.

⁹ Ismoil Gaspirali. Turkiston Ulamosi. Bog'chasaroy.: "Tarjimon" matbaasi. – B. 1.

¹⁰ Irzayev B. Qo'qon tarixidan lavhalar. – T.: "Akademnashr" nashriyoti. 2020. – B. 15.

Qo‘qon jadidlari maktab ta’lim tizimini islohot qilish bilangina cheklanib qolmasdan, matbuot orqali millatni ilm-ma’rifatga da’vat etish, dunyoda sodir bo‘layotgan voqeiliklar bilan mahalliy aholini yaqindan tanishtirib borish orqali texnikaviy jihatdan tezlik bilan sanoatlashib borayotgan dunyoda raqobat qilishga qodir bo‘lgan kuchli millatni shakllantirishga intildilar.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shokir Muxtoriy. Islohnii nimadan boshlarg’a // “Sadoyi Farg’ona” gazetasi. 1914-yil 3-aprel. № 1.
2. Muhbir. Maktub // “Vaqt” gazetasi. 1907-yil 21-iyun. № 183.
3. “Turkiston musulmonlari” // “Vaqt” gazetasi. 1908-yil 15-yanvar. № 268.
4. Бобровниковъ Н.А. Русско-туземныя училища, мектебы и медресы Средней Азии. – С.Петербург.: Сенатская типография. 1913 г.
5. Irzayev B. Qo‘qon tarixidan lavhalar. – T.: “Akademnashr” nashriyoti. 2020.
6. Ibodiy A. Turkiston ahli nima uchun inqirozga yuz tutdilar? // “Sadoyi Farg’ona” gazetasi. 1914-yil 20-aprel. № 6.
7. Ismoil Gaspirali. Turkiston Ulamosi. Bog’chasaroy.: “Tarjimon” matbaasi
8. Kadirov, F. A. (2025). THE IMPACT OF PRAGMATISM AND UTILITARIANISM ON MORAL DEVELOPMENT. FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.
9. Ibragimova, M. A. (2024). THE NEIGHBORHOOD IS AN EXPRESSION OF THE NATIONAL LIFESTYLE RETROSPECTIVE ANALYSIS. World Bulletin of Management and Law
10. Kunisheva, N. J. (2023). THE ROLE OF UZBEKISTAN YOUTH IN POLITICAL PROCESSES DURING GLOBALIZATION. Open Access Repositor.
11. Mirzamidinova, S. (2025). XX ASR BOSHLARIDA QO ‘QON JADIDLARINING ISLOHOT YO ‘LIDAGI URINISHLARI. Молодые ученые, 3(2).